ShaffofQurilish

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO‘JALIGI VAZIRLIGI

**"KONSTRUKSIYA LOYIHA EKSPERTIZA" MCHJ**

Holati: Ijobiy
Direktor: Xolliyev Baxtiyor Bozorovich
Sana: 27-08-2025 yil

# YIG'MA EKSPERT XULOSASI

256290 - SONLI

| | |
|---|---|
| **Obyekt nomi:** Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Farxod ko‘chasi, 21-mavze, 3 a-uy manzilida “Mavjud maishiy xizmat ko‘rsatish majmuasi obektini yuridik xujjatga ega qismini rekonstruksiya qilish” | |
| **Buyurtmachi:** | "ALRANO-CHIROY" XK |
| **Bosh loyihachi:** | "ATLANT QUALITY" mas’uliyati cheklangan jamiyati |
| **Moliyalashtirish manbai:** | Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan |
| **Bosh pudratchi:** | Buyurtmachi tomonidan aniqlanadi |
| **Qurilish turi:** | Rekonstruksiya |
| **Murojaat raqami:** | 086963 |

**1. Loyihalash uchun asos.**

1.1. Buyurtmachi tomonidan loyiha tashkiloti bilan kelishilgan loyihalash topshirig`i.

1.2. Toshkent shahar,Uchtepa tumani qurilish bo‘limining 2023-yil, 13-dekabrdagi №1726262-145985-sonli Ruxsatnoma.

1.3. 28.12.2023 yilda berilgan 1726-1726262-100939- sonli Arxitektura rejalashtirish topshirig‘i.

1.4. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi davlat ekologik ekspertizasi markazi Toshkent shahri filiali 09.04.2024 yildagi 01-02/14-465- sonli Davlat ekologik ekspertizasi Xulosasi.

1.5. Toshkent shaxar Qurilish bosh boshqarmasi Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 2024-07-09 yildagi 121440642 - sonli Xulosasi.

**2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.**

2.1. RP (IL - ishchi loyiha). Bosh reja.

2.2. RP (IL - ishchi loyiha). Umumiy tushuntirish xati.

2.3. Loyiha tarkibiy bayoniga ko‘ra «ishchi loyiha» ning elektron yo‘nalishda taqdim qilingan loyiha-smeta hujjatlari.

2.4. “GEOLOGY AND PROJECT” MCHJ tomonidan bajarilgan qurilish maydonining muhandislik - geologik shartlari to’g’risidagi Xulosa.

2.5. “PROEKT STROY EXPERTIZA” MCHJ tomonidan bajarilgan mavjud 2 qavatli noturar joy binosini texnik tekshiruvi Xulosasi Hisoboti.

**3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.**

| Bino | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **Turi** | **Nomi** | **Qavati** | **Qurilish maydoni** | **Umumiy maydoni** | **Xajmi** |
| Boshqa | MAISHIY XIZMAT KO‘RSATISH MAJMUASI | 3 | 95 | 249 | 1245 |
| **Jami:** | | | **95** | **249** | **1245** |

**3.1. Ishchi loyihaning yechimlari:**

- hisoblangan zilzila bordoshlilik – 8 ball:
- shamol tezligining bosimi – 38 kg/m2 ;
- qor qoplamining og‘irligi – 50 kg/m2 ;
- tuproqning muzlash chuqurligi – 0,7 m.

Zamin tuprog’i (лессовидные суглинки . . . ), cho’kuvchanligi I tur (тип), beton va temir beton konstruktsiyalarga ta’siri shiddatsiz.

Yer osti suvlari yer sathidan 7,5m chuqurlikda, portland sementda tayorlangan betonga ta’siri shiddatsiz.

**3.2. Bosh reja.**

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Farxod ko‘chasi, 21-mavze, 3 a-uy manzilida “Mavjud maishiy xizmat ko‘rsatish majmuasi obektini yuridik xujjatga ega qismini rekonstruksiya qilish”

Bosh rejada quyidagi bino ko’zda tutilgan:

«Maishiy xizmat ko‘rsatish majmuasi»

Avtoturargox maydoni – 25 m2

Ko'kalamzorlashtirish maydoni - 20 m2

**3.3. Arxitektura va Konstruktiv yechimlari.**

Bino 2-qavatli, yer to’llasiz, tarxda to’g’ri to’rtburchak shakilda, umumiy o’lchamlari 14,8x15,0m, А-Д/1-6 o’qlar bo’yicha (“AL RANO-CHIROY” X/K ga tegishli qismi shartli ravishda 9,0x14,8m, 3-6/А-Д o’qlar bo’yicha). Xonalar balandligi:1-2 qavatlar 3,3m.

Bino quyma temir beton konstruktsiya vositasida (рамно-связевой) qurilgan, devorlari pishgan g'isht dan. Orayopmalar ko’p bo’shliqli yeg’ma temir beton plitalar hamda qisman quyma temir betondan bajarilgan. Tom konstruktsiyasi temirdan, tom qoplamasi profnastildan.

Binoni konstuktsiya qismi (элементлари)ni xarakteristikasi quyidagicha izohlanadi:

Poydevor quyma temir betondan bajarilgan, ta’smasimon.

± 0.000 satihdan yuqori tashqi devorlar pishtgan g’ishtdan, qalinligi 400mm, sement - qumli qorishmada terilgan.

To’siq, bo’lma devor (перегородка)lar pishgan g'isht dan dan qalinligi 250mm, 120mm sement - qumli qorishmada terilgan.

Ustun, sarrov, o’zak, tepadon, zilzila bardoshlik va bog’lo’vchi kamarlari quyma temir beton bajarilgan.

Orayopmalar ko’p bo’shliqli yeg’ma temir beton plitalardan hamda qisma quyma temir betondan.

Zina quyma temir betondan.
Tom konstruktsiyasi temir (prokat)dan.
Tom qoplamasi profnastildan.
Otmostka (тротуар) quyma betondan, kengligi 1,0m.
Texnik tekshiruv hulosasiga ko’ra bino konstruktsiya (element)larini texnik holati qoniqarli (работоспособное), darzlar, deformatsiyalar, egilish va boshqa nuqsonlar uchramagan,
**Loyihada 3-chi qo’shimcha qavatini qurilishi (надстройка) rejalashtirilgan, qavat balandligi 3,3m.**
Binoni 3-chi qavatini konstruktiv tuzilmasi quyma temir beton (рамно-связевой) vositasida loyihalangan.
Tashqi devorlar pishgan g'isht dan, qalinligi 380mm, II toifali (категория).
Ustun, sarrov, o’zak va bog’lo’ovchi kamarlar quyma temir betondan.
Zina quyma temir betondan.
Tom yopma temir fermalardan.
Tom qoplama profnastildan temir to’shamalar ustidan.
Shuning bilan birga texnik tekshiruv hulosasini ta’vsiyasiga ko’ra loyihada quyidagi ishlar bajarilishi nazarda tutilgan;
- ustun (колонна)larni temir elementlar (уголок, полоса) bilan kuchaytirilishi;
- sarov (ригель)larni temir elementlar bilan kuchaytirilishi.

**3.4. «Qurilish obyektlarini nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda bino loyhalashtirilgan» yechimlari.**
Loyihalanayotgan bino hududida loyihalanadigan avtoturargohlardagi avtomobil o‘rinlarining umumiy sonidan 3 foizi nogironligi bo‘lgan shaxslarning avtomobillari uchun ajratilgan, Bino va inshootlarning kirish qismida o‘rindiqli aravachalardagi nogironligi bo‘lgan shaxslarning kirishi va ularni evakuatsiya qilinishi uchun sharoitlatlar yaratilgan. Ishchi loyiha “Qurilish obyektlarini nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda loyihalashtirish” ShNQ 2.07.02-22 talablariga to’liq javob beradi.

**4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.**

**4.1. Yong‘in xavfsizligi.**
Uch qavatli qilib, qo‘shimcha xonalar qurish orqali kengayttirgan holda qayta kurish (rekonstruksiya qilish) loyihasi ekspertizaga taqdim etildi. Tuzilmalarning chegaraviy holatlariga ko‘ra, binoni yong‘inga bardoshlikning II darajasiga mos deb hisoblash mumkin. Tuzilmaviy (strukturaviy) yong‘in xavfi sinfi C0. Binoning funksional yong‘in xavfi sinfi – F4.3. Qavatlardagi chiqish (evakuatsiya) yo‘llari soni me’yoriy talablarga javob beradi. Chiqish (evakuatsiya) yo‘llari devorlari va shiftlariga yonmaydigan materiallar bilan ishlay beriladi. Binoga yong‘in signalizatsiyasi va odamlarni yong‘indan ogohlantirish tizimi o‘rnatiladi. Binolar devorga o‘rnatilgan elektr qozonlari orqali isitiladi. O‘t o‘chirish mashinalarining kelishi va o‘tishi uchun joy mavjud.

**4.2. Energiya samaradorlik.**
Ishchi loyihada ShNK 1.03.01-16 yo‘riqnomaning 5-chi ilovasiga asosan energiya tejamkorlik ishlari ko‘rsatilgan.
Binoning ichki va tashqi qismida energiya tejash uchun mo'ljallangan sensorli LED chiroqli panellar o‘rnatilgan;
Ushbu obyektda tomiga quyosh panellari o’rnatiladi.

**5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.**

5.1. O'zbekiston Respublikası Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi davlat ekologik ekspertizası markazi Toshkent shahri filiali 09.04.2024 yildagi 01-02/14-465- sonli Davlat ekologik ekspertizasi Xulosasi.

5.2. Toshkent shaxar Qurilish bosh boshqarmasi Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 2024-07-09 yildagi 121440642 - sonli Xulosasi.

5.3. Loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachi bilan kelishilgan. Buyurtmachining qo‘shimcha taklif va e’tirozlari mavjud emas.

**6. Ekspertiza natijalari.**

6.1. Ishchi loyiha ekspertiza ko'rigiga buyurtmachining arxitektura va rejalashtirish, texnologik, ichki muhandislik, energiya tejamkorlik va boshqa yechimlari izohlarsiz taqdim etilgan.

6.2. Ekspertiza jarayonida mahalliy (lokal) ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihasiga quyidagi asosiy tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi:

-- Loyihada demondaj ishlari ko’rsatildi.

-- Loyiha 3-chi qavatini to’siq (bo’lma) devor (перегородка)lar konstruktsiyasi chizmasi va detallari bilan, hamda tom suv oqova detallari beilan to’ldirildi.

-- Loyihada otmostka(trotuar) ko’rsatildi.

-- 3-4 va B-V o‘qlaridagi zinapoya pillapoyalari tabiiy ravishda yoritilishi lozim, ehtimol L2 tipidagi zinapoyalarda bo‘lgani kabi, tom yopmasi(qoplamada)da kamida 4 kvadrat metr maydonga ega teshik (tuynik) ochilgani ma’quldir, asos: p. 5.35. SHNK 2.01.02-04.

6.3. Buyurtmachi loyiha-smeta hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda tegishli manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6.4. Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o‘rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha-smeta hujjatlarini o‘zgartirish talabi qo‘yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachiga to‘liq tuzatishlarsiz berilsa, ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

6.5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-son qarori 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida “Mualliflik nazorati”ni amalga oshirilishini ta’minlaydi.

6.6. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-son qaror Nizomining III-bob, 29-bandiga asosan ekspertiza tashkilotiga taqdim etilgan hujjatlariningsifati, dastlabki ma’lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir.

6.7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi “Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg‘i-energitika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4779-son qarori va QMQ 2.01.04-18 “Qurilish issiqlik texnikasi” talablariga to‘liq rioya qilinsin va energiya tejamkor materiallardan foydalanilsin.

6.8. Loyihachi tomonidan taqdim qilingan tahminiy qurilish narhi 316 549, 300 mln so‘m QQS siz.

**7. Xulosalar.**

7.1. Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Farxod ko‘chasi, 21-mavze, 3 a-uy manzilida “Mavjud maishiy xizmat ko‘rsatish majmuasi obektini yuridik xujjatga ega qismini rekonstruksiya qilish”loyihasi ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda, keyingi ko'rib chiqishga va

tasdiqlashga tavsiya etiladi. Tuzatilmagan kamchiliklar va ekspert bilan kelishmagan holda kiritilgan keyingi har qanday o‘zgartirish uchun buyurtmachi va loyihachi mas’uldir.

Ekspert mutaxassislar:
Konstrukciya qismi. Rizaev T.A. , Yong‘in xafsizlifgi. Zyuz.V.V.
Energiya samaradorligi: Sultonov K.